

ANTROPONIMLARNING FALSAFIY VA LINGVISTIK TUSHUNCHALARDA IFODALANISHI

Jurayeva Iroda Axmedovna
O‘zbekiston Milliy universiteti
Xorijiy til va adabiyoti kafedrasи dotsenti, f.f.n.

Annotatsiya. *Ushbu maqola onomastikaning falsafa, mantiq, madaniyat, etnografiya va tilshunoslik fanlari bilan o‘zaro bog‘liqligi masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda antroponom semantikasi va motivatsiyasi, antroponimlarning tasnifi, tarixiy antroponimiya va antroponimlar bilan bog‘liq sosiolingvistik va milliy-madaniy jihatlar muammolar ochib berilgan. O‘zbek ismlarining tarixiy analalarga, ta’lim-tarbiya kabi ijobiy fazilatlar bilan bog‘liq boy ma’no va motivatsiyalarga ega ekanligi tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar. Atoqli ot, ism, antroponimlar, til falsafasi, ontologik yo‘nalish, qadimgi davr, lingvomadaniy, konsept, motivatsiya.

Atoqli otning tabiat haqidagi ilmiy qarashlar mantiq, falsafa va tilshunoslikda shakllangan va antik davrdan to hozirgi kungacha bo‘lgan uzoq davrni o‘z ichiga oladi. Qadimgi yunon falsafasi davridayoq ismning o‘ziga xos xususiyatlari haqida juda ko‘plab bahs-munozaralar bo‘lgan. Albatta bunday munozaralar natijasida ismlar sharhining ikki yo‘nalishi paydo bo‘ldi: ismning mazmunini, ifodalayotgan predmet nomining tabiatiga mos keladi degan fikrni bildirgan (Geraklit, keyinchalik stoiklar, Pifagorchilar shunday deb ishonishgan), boshqa yo‘nalish tarafdarlari esa ularni mos kelmaydi degan. Aniqrog‘i, ongli nomlash g‘oyasini ishlab chiqqan (Demokrit, Aristotel, Platon)[2]. Bugungi kunda Platonning ism va ob‘yektning asl motivatsiyasi o‘rtasidagi aloqaning yo‘qolishi va buning natijasida ism-narsa munosabatlari nomlash an‘analariga asoslanishi haqidagi fikrlari juda qiziqarli va dolzarbdir.

Atoqli otlar XX asr gumanitar fanlar bo‘yicha eng dolzarb muammoga aylandi. Ushbu izlanishlar sohasida P.A.Florenskiyning asarlari alohida o‘rin egallaydi. U tilning falsafiy muammolari, ismning shaxs bilan uzviy aloqadaligini ko‘rib chiqadi. Shuningdek, P.A.Florenskiy qadimgi yunon faylasufi Platonning «narsalar g‘oyalarning o‘xshashligi va aksidir» ta’limotini chuqur o‘rganadi, P.A.Florenskiy

til falsafasida yangi yo‘nalish – ontologik yo‘nalishni ilgari suradi, bu yerda nom bir vaqtning o‘zida g‘oya – kuch, mohiyat – so‘z sifatida ishlaydi. «Insonni olamning ruhiga kirishishi uchun uni nomlashning o‘zi kifoya. Predmetning nomi ham uning mohiyatini ifodalaydi. Ism o‘zi nomlangan sub’yekt yoki predmetda yashaydi; har qanday narsa yoki buyum o‘z nomi bilan yaratiladi»[3]. Bu faylasufning ta’limotida markaziy o‘rinni nom prizmasi insonning dunyoga munosabati o‘rganiladi.

Til falsafasida ontologik yo‘nalishning paydo bo‘lishi yevropa an’analariga va o‘rganilayotgan tilni borliq bilan chambarchas bog‘liqlikda o‘rganishga asoslangan falsafiy-lingvistik fikrining rivojlanishiga asos bo‘ldi. A.F.Losevning fikriga ko‘ra, “ism borliqning barcha tassavvur qilinadigan qatlamlari yig‘indisidir” olim bu qarash bilan nom madaniyatning bir qismi ekanligini taъkidlaydi: “so‘z va ayniqsa ismlarda xalqlarning asrlar davomida tuplangan barcha madaniy boyliklari mujassamadir”[6]. Lingvokulturologik nuqtai nazardan, ism birinchi navbatda, shaxsning xarakterli belgi xususiyatlarini aks ettiradi, balki insonning taqdiri va tarixi kabi jihatlarini ham o‘ziga singdiradi. Insoniyatning madaniyati, hayot tarzi ism va ismlar mazmuni bilan singib ketgan. «Ism bilan dunyo va inson yanada ma’rifatli bo‘ladi, dunyoni taniydi va o‘z-o‘zini anglaydi». Ismning tabiatini o‘rganib, A.F.Losev ismning madaniyatga, shaxsga va aksincha shaxsning madaniyatga bog‘liqligini qayta-qayta ta’kidlaydi. Garchi uning asarlarida ismning ichki tuzilishi birinchi o‘ringa chiqsa-da, olimning falsafiy qarashlari madaniyat kontekstida shaxsiy ismlarni o‘rganishga turtki bergen, deb hisoblash mumkin.

Atoqli otlar haqidagi fan tarix, etnografiya, arxeologiya, adabiyotshunoslik, geografiya, astronomiya, mintaqashunoslik va madaniyat bilan chambarchas bog‘liq.. Tilshunoslikda onomastika bo‘limlari orasida atoqli otlar eng keng tarqalgan til hodisasi sifatida alohida e’tibor beriladi.

Antroponimlar semantikasi va motivatsiyasi, antroponimlarni tasnif qilishning ilmiy tamoyillari, antroponimlarni qardosh va noqardosh tillar bilan qìesiy o‘rganish, o‘zbek tarixiy antroponimiyasi, antroponimlarning turli uslublarida,

ayniqsa, antroponimiya fondiga ijtimoiy-lisoniy, milliy-madaniy, falsafiy-etnik jihatdan èndashish masalalari bo'yicha talaygina ishlar amalga oshirilmoqda[1].

Falsafiy lingvistik tushunchalarda tegishli ismlarning semantikasi haqidagi g'oyalar doimo olimlarning diqqat markazida bo'lgan. Ammo shunga qaramay, uzoq vaqt davomida na tilshunoslikda na falsafada ismlarning semantik va funksional tabiatini to'g'risida muqim bir fikrlar mavjud emas edi va bugungi kunda ham muammoni tobora ko'proq o'rganishga qaratilgan ishlar olib borilmoqda, ularda onomastik mohiyatining turli xil talqinlariga qaratilgan ko'plab ishlar mavjud. Bu birinchi navbatda turli onomastik leksikaning tuzilishi, semantikasi va funksional jihatlariga bog'liqdir.

O'zbek ismlar ro'yxati juda boy va xilma-xil ma'noga ega. Chunki Islom dini ta'sirida ismlar turi ko'payib borgan. Shuning uchun, slavyanlar va Yevropa xalqlariga nisbatan juda keng va turli ma'noga ega ismlar juda ko'p. Buning ustiga o'zbek xalqi ota-bobolardan qolgan ismlarni chin dildan e'zozlagani sabab, ularni udumda saqlab qolish bilan davr va ijtimoiy o'zgarishlar taqozosi bilan kirib kelayotgan yangi va zamonaviy nomlarni ham erkin-emin qabul qilish an'anasini davom etiradilar. Shuning uchun o'zbek etnoantroponimlari ham diaxronik, ham sinxron tarzda, shuningdek, semantik va grammatik-fonologik tuzilishi jihatdan juda boy ro'yxatga ega.

O'zbek ismlari deyarli har biri chiroqli ma'noga va motivatsiyaga ega: Omon-baxtli sog' omon bo'lish, Baxtiyor - baxtli inson, Jahongir - dunyoga ega, Po'lat - eng mustahkam metall, Sherzod – arslon farzandi, Erkin – hur, Gulbahor – bahor guli, Iroda – irodali, kuchli, Shaxnoza – malika va boshqalar.

Bugungi kunda xalqimiz orasida ko'proq islomiy ismlar qo'yilmoqda: Abdulloh, Abdulfattoh, Abdullatif, Abdusamad, Ibroxim, Islom, Ismoil, Muxammad, Umar, Habib, Yusuf, Madina, Maryam, Mubina, Mo'mina, Hadicha, Oysha, Hafsa, Habiba, Shamsiya, Shahzod, Shohjahon, Shohruh, Kamilla, Sabina, Sitora, Durdona, Shahzoda, Bonu, Samina.

O'zbek antroponimlarini tizimga solishda va uni qo'llashda eng asosiy konsept - oila hisoblanadi va uning roli katta ahamiyatga ega. Chunki u «har qanday

lingvomadiniyatdagi konseptosferada (ya’ni kuzatilgan turli millat konseptlarida) eng muhim konseptlardan biri hisoblanadi. U murakkab semantik-freyqli (so‘zlarni o‘rganishda kerakli ma’lumot ma’nosidagi) tuzilishga ega: yadrosi universal, umuminsoniy bo‘lib aholi o‘rtasida ijtimoiy aloqa shakli sifatida ifodalanadi»[4].

Abu Nasr Forobiy bu boradi shunday fikr bildirgan: “So‘zlash quvvati yordamida inson bilim va hunar egallaydi, xulq-atvoridagi xunuk va go‘zal harakatlarni ajrata biladi va bajarilishi zarur bo‘lgan-bo‘lmagan ishlarni ado etadi, shu bilan birga zararli yoki foydali narsani, lazzatli va achchiq narsalarni fahmlaydi”. Demak, axloq insonning jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga, baxtli va farovon turmush kechirishi uchun zamin yaratadi. Shu yerda aytish joiz, tarbiya va axloq motivi o‘zbek antroponimiyasida ham o‘ziga xos o‘ringa ega. Chunki inson o‘z farzandiga ism berar ekan avvalo bolaning baxtli bo‘lishini, buning uchun esa uning sog‘lom, odobli-ahloqli va barkamol voyaga yetishini istaydi. Ushbu orzularini, umid va istaklarini bir so‘zga jam etib farzandiga ism qo‘yadi[5].

Xulosa qilib aytganda atoqli otlar yuzasidan olib borilgan adabiyotlar sharhi ismlar xalqning tarixiy va madaniy o‘tmishini o‘rganish uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini asoslashga imkon beradi, unda asosiy rolni ham jamoaviy ham individual lisoniy shaxs egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Begmatov E.A. O‘zbek ismlari ma’nosi (izohli lug‘at). 14600 ismlar izohi. 2-nashri. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (lug‘at), 2007, - 608 b.
2. Bezlepkin N.I. Filosofiya yazыка v Rossii: K istorii russkoy lingvofilosofii / N.I. Bezlepkin. - 2-ye izd. dop. - SPb.: Iskusstvo - SPb., 2002. - S.208.
3. Galiullina G.R. Tatarskaya antroponimiya v lingvokulturologicheskem aspekte.: Avtoref.diss...dokt.filol.nauk.Kazan, 2009. -25 s.
4. Jurayeva I.A. Nominativnye funksii antroponimov (na materiale angliyskogo, uzbekskogo i russkogo yazыkov): Avtoref. diss... kand. filol. nauk. – Tashkent, 2012 – 27 s.

5. Jurayeva I.A. O‘zbek antroponimlarining ijtimoiy ahamiyati.
6. Markaziy Osiyo ijtimoiy taddiqotlari jurnali. Toshkent -2020 1(2). 56-66 b
7. Losev A.F. Bältiye. Imya. Kosmos. Moskva: Mysl: Ros. otkrytyy un-t, 1993. - S. 628.

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARDAGI GEOLOGIYA TERMINHLARI BO‘YICHA LEKSIKOGRAFIK TALABLARNING QIYOSIY TADQIQI

Rixsiyeva Lola Azimjanovna

O‘zDJTU o‘qituvchisi,
Toshkent shahri

Annotatsiya. Ushbu tezisda terminologik lug‘atlar ustida amaliy ishlar olib borib, barcha bo‘shliqlarni va kamchiliklarni imkon qadar bartaraf qilish uchun leksikograflar tomonidan terminologik lug‘atlarga qo‘yiladigan eng zaruriy talablarni ilgari surilgan. Shuningdek, keltirilgan talablar asosida ingliz va o‘zbek tillardagi geologiya terminlari bo‘yicha ma'lum bir terminologik lug‘atdar tanlanib olindi va qiyosiy tadqiq olib borilib, soha leksikografiyasining rivojlanishiga hissa qo‘shadigan jihatlar yoritilib berildi.

Kalit so‘zlar. Geologiya, geologiya terminlari, leksikografiya, leksikografik talablar, terminologik lug‘atlar

Lug‘at har qanday davlatning ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy, madaniy va iqtisodiy taraqqiyotining ramzi hisoblanadi. Lug‘atning paydo bo‘lishi uni belgilovchi muhitning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq. Aniqrog‘i, leksikografiyaning rivojlanishi ma'lum bir davrda rivojlanish darajasini ko‘rsatadi. Bugungi kunda leksikografiya oldida turgan asosiy vazifalarga insoniyat amaliyoti bilan bog‘liq bo‘lgan tarjima, ona va chet tillarini o‘rgatish, hamda hamma sohalarda chuqr bilimlarga ega bo‘lish kiradi. Leksikografiya tarixida olimlar lug‘atlarning bir nechta turlarga ajratishgan. Bunda L.V.Sherba tasnifiga ko‘ra: akademik turdagilug‘atlar, ensiklopedik lug‘atlar, umumiylug‘atlar, tezaurus(maxsus leksikani qamrab olgan), ideografik lug‘atlar, izohli (bir tilli), tarjima (ikki yoki ko‘p tilli) lug‘atlar, tarixiy bo‘lmagan lug‘atlar (so‘z boyligini sinxron tarzda aks ettiruvchi), tarixiy lug‘atlar